



5-sinf savollari

- 1 (3.1 ball) Abbas 6x6 o'lchamdagi jadvaldan har qadamda rasmda ko'rsatilgan uchta birlik kvadratdan tashkil topgan shaklni olishi mumkin.



Bir nechta qadamdan keyin Abbas quyidagilardan qaysi shaklni hosil qila olmaydi?



- 2 (3.1 ball) $A(\frac{9}{11})$, $B(\frac{7}{9})$, $C(0, 8)$ nuqtalar sonlar o'qida chapdan o'ngga qanday tartibda joylashadi?

A) ABC B) BCA C) ACB D) CBA

- 3 (3.1 ball) Biror sonni 9 ga bo'lganda 5 qoldiq qoladi. Shu sondan 4 marta katta sonni 9 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

- 4 (3.1 ball) Do'kondagi barcha bir xil o'lchamdagi qutilarni manzilga yetkazish uchun bitta yuk mashina bor. Uning yuk xonasining sig'imi haqida quyidagilar ma'lum:

- Agar mashinaga faqat 30 ta quti yuklansa, yuk xonasining $\frac{3}{8}$ qismi to'ladi.

- Agar do'kondagi barcha qutilar yuklansa, yuk xonasining $\frac{4}{5}$ qismi to'ladi.

Agar barcha qutilar mashinaning yuk xonasiga joylashtirilsa, bo'sh qoladigan joyga ko'pi bilan nechta xuddi shunday qutilarni sig'dirish mumkin?

A) 14 B) 16 C) 18 D) 20

- 5 (3.1 ball) Robototexnika to'garagida o'g'il bolalar soni qiz bolalar sonidan 2 marta ko'p. O'g'il bolalarning musobaqada to'plagan o'rtacha balli 70 ball, qiz bolalarniki esa 85 ballni tashkil etdi. Butun to'garak a'zolarining o'rtacha ballini toping.

A) 75 B) 77,5 C) 72,5 D) 80

- 6 (4.2 ball) O'qituvchi o'zining sinfidagi o'quvchilariga hammasi bo'lib 54 ta daftar, ruchka va qalam tarqatdi.


Bunda:

- Har bir kishi uchun 1 ta qalam,
- Har uch kishi uchun 1 ta ruchka,
- Har olti kishi uchun 1 ta daftar berilgan.


Sinfda nechta o'quvchi bor?

- A) 24 B) 27 C) 36 D) 30

- 7 (4.2 ball) Quyidagi rasmdagi katta to'g'ri to'rtburchak ikkita teng o'rtacha to'g'ri to'rtburchakga bo'lingan:




Keyin esa o'rtacha to'g'ri to'rtburchaklardan biri quyidagidek, bitta tomoni 20 ga teng bo'lgan kvadrat va kichik to'g'ri to'rtburchakga bo'lingan.



Kichik to'g'ri to'rtburchak perimetri katta to'g'ri to'rtburchak perimetrining $\frac{3}{8}$ qismini tashkil qiladi. U holda katta to'g'ri to'rtburchak perimetrini toping.

- A) 168 B) 144 C) 160 D) 128

- 8 (4.2 ball) Sonlar o'qida T, A, S, I, M, O nuqtalari qandaydir oltita natural sonni ifodalaydi. Ketma-ket kelgan ikkita nuqtalar orasidagi masofa 1 ga teng. T, A, S, I nuqtalari ifodalagan sonlarning yig'indisi 48 ga teng. M va O harflari ifodalagan sonlarning ko'paytmasini toping.



- A) 418 B) 437 C) 285 D) 396

- 9 (4.2 ball) Salimda uzunligi 17, 18 va 30 cm bo'lgan uchta tayoqcha bor. U tayoqchalarining biridan 2 cm, ikkinchisidan 3 cm va uchinchisidan 5 cm kesib tashlamoqchi (mos ravishda kesilishi shart emas). So'ngra qolgan tayoqchalar bilan uchburchak hosil qilishni xohlaydi. Salim tayoqchalarini o'zi xohlaganidek kesib jami nechta turli uchburchak hosil qila oladi?

- A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

- 10** (4.2 ball) Qayumxo‘ja noodatiy shaklga ega bo‘lgan o‘yinchoqning aniq hajmini aniqlamoqchi. Buning uchun u bo‘yi 10 *cm*, eni 15 *cm* va balandligi 20 *cm* bo‘lgan to‘g‘ri burchakli parallelepiped shaklidagi shisha idishga ma‘lum miqdorda suv quydi. O‘yinchoq suvga to‘liq botirilganda, idishdagi suv sathi avvalgi holatidan 1,2 *cm* ga ko‘tarildi (lekin suv idishdan toshib ketmadi). O‘yinchoqning hajmi necha cm^3 ga teng?
A) 120 B) 150 C) 180 D) 200

- 11** (5.3 ball) 100 sonining barcha natural bo‘luvchilari bittadan doskaga yozib chiqilgan. Elbek bu sonlar orasidan ko‘paytmasi yana 100 ning bo‘luvchisi bo‘ladigan ikkita turli sonni necha xil usulda tanlab olishi mumkin?
A) 16 B) 18 C) 12 D) 20

- 12** (5.3 ball) Quyidagi berilgan yig‘indida bir xil harflar bir xil raqamlarni, har xil harflar esa har xil raqamlarni ifodalaydi:

$$\overline{ABBB} + \overline{BAAA} = S$$

Agarda hosil bo‘lgan S yig‘indi 9 ga qoldiqsiz bo‘linsa, $A \cdot B$ ko‘paytmaning qabul qilishi mumkin bo‘lgan turli qiymatlari yig‘indisini toping.

- A) 30 B) 40 C) 50 D) 60

- 13** (5.3 ball) To‘g‘ri to‘rtburchak eni va bo‘yi natural sonlar va ularning nisbati 3:7 kabi. To‘g‘ri to‘rtburchak yuzi 525 ga teng. Bu to‘g‘ri to‘rtburchak bir nechta kvadratlarga bo‘lindi. Bu kvadratlarning perimetrlari yig‘indisi eng kamida nechaga teng bo‘lishi mumkin?
A) 180 B) 210 C) 260 D) 160

- 14** (5.3 ball) Qisqarmas $\frac{X}{Y}$ kasr uchun $\frac{X}{Y} = A, BC$ tenglik o‘rinli. Bunda A, B, C turli raqamlar va X, Y musbat butun sonlar. Agar $A \cdot B \cdot C = 35$ bo‘lsa, $X + Y$ ning qabul qilishi mumkin bo‘lgan eng kichik qiymatini toping.
A) 10 B) 11 C) 13 D) 16

- 15** (5.3 ball) Beksulton va Abdulaziz aylana shaklidagi bog‘ atrofida yugurishmoqchi. Dastlab ular bir xil yo‘nalishda yugurishni boshlashdi. Bunda Beksulton 5 *m/s* tezlik bilan yugura boshladi, ammo tez yugurganligi sababli har daqiqada tezligini 1 *m/s* ga kamaytirdi va oxirida to‘xtab qoldi. Abdulaziz esa 1 *m/s* tezlikda yugurishni boshladi va har daqiqada tezligini 1 *m/s* ga oshirib bordi. 9 daqiqadan so‘ng ular 2- marta uchra-shishdi. Agar ular xuddi shunday tartibda qarama-qarshi yo‘nalishda harakatlanganlarida edi necha daqiqadan keyin birinchi marta uchrashar edilar?
A) 3 B) 4 C) 5 D) 6

- 16** (7.4 ball) Bir xil asosli piramida va prizma asosining mos uchlari ustma-ust tushadigan qilib birlashtirildi. Hosil bo'lgan 3D jismni umumiy uchga ega bo'lgan yoqlarini turli xil ranglarga bo'yash kerak. Agar bu ishni bajarish uchun eng kamida 7 xil rang kerak bo'lsa shu 3D jismning nechta qirrasini bor?
- 17** (7.4 ball) Tarvuz sotuvchisining tarozisi buzilib qolgan. Tarozini ba'zida 1 kg qo'shib ba'zida esa 2 kg ayirib vaznini o'lchaydi. Tarozida birinchi, ikkinchi va uchinchi tarvuzlar o'lchanganda ularning vaznlarini mos ravishda 10, 13, 14 kg ko'rsatdi. Sotuvchi shuni sezib qoldiki 3 ta tarvuzdan kamida bittasining vaznini ortiqcha hisoblagan ekan. Keyin esa birinchi va ikkinchi, birinchi va uchinchi, ikkinchi va uchinchi tarvuzlarning vaznlarini mos ravishda 25, 26, 29 kg ko'rsatdi. Yuqoridagi ma'lumotlar orqali uchchala tarvuzning birgalikdagi haqiqiy og'irligini toping.
- 18** (7.4 ball) Nodir yashaydigan ko'chada uylar 700 dan 900 gacha bo'lgan sonlar bilan tartiblangan. Bu ko'chadagi qandaydir 3 ta uyning tartib raqami quyidagi harfiy ko'rinishga ega (bunda turli harflar turli raqamlarni, bir xil harflar bir xil raqamlarni ifodalaydi):
- Birinchi uy: \overline{CBA}
 - Ikkinchi uy: \overline{ABD}
 - Uchinchi uy: \overline{ACD}
- Nodir shuni payqadiki bu uylarning raqamlari yig'indisi hisoblanganda ketma-ket kelgan sonlar hosil bo'ladi. $A + B + C + D$ yig'indi nechaga teng?
- 19** (7.4 ball) Nodir, Sardor, Salimxo'ja, Qayumxo'ja, Sherzod va Asadbeklar TASIMO olimpiadasida hakamlik qilishdi. Fotosuratchi ular ishtirokida hammasi bo'lib 9 marta rasm oldi. Rasmlardan bittasi jamoaviy (barcha hakamlar birgalikda tasvirlangan), qolgan 8 tasining har birida esa faqat bitta hakam tasvirlangan. Har bir hakamning yolg'iz o'zi tasvirlangan kamida bitta, ko'pida esa ikkita rasmi mavjud. Rasmlarni hakamlar quyidagi tarzda bo'lishib oldilar:
- Asadbek faqat bitta rasm oldi.
 - Nodir olgan rasmlarning birida yolg'iz o'zi tasvirlangan. Shuningdek faqat ugina o'zining tasviri bor bo'lgan rasmni olgan.
 - Sardor ikkita rasm oldi. Ularning birida Sherzod, boshqasida esa Qayumxo'ja tasvirlangan.
 - Qayumxo'ja faqat bitta rasm oldi. Unda Asadbek tasvirlangan.
 - Salimxo'ja olgan qaysidir rasmdagi hakamda Salimxo'janing ham rasmi bor.
 - Sherzod faqat jamoaviy rasmni olgan hakamning rasmini oldi.
 - Hakamlardan uchtasi ikkitadan, qolgan uchtasi esa bittadan rasm oldi.
- Fotosuratchi qaysi hakamlarning yolg'iz o'zini ikki martadan rasmga olgan?
- 20** (7.4 ball) A natural sonni o'nli yozuvidagi bitta raqamini o'chirishdan hosil bo'ladigan sonlarni A ning "Yordamchilari" deb ataylik. O'zining barcha "Yordamchilari" ga qoldiqsiz bo'linadigan uch xonali sonlar nechta?